

Horun Sharif: "Pokiston va O'zbekiston o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlik bugungi kunda har qachongidan ham dolzarbroq"



2026-yil 29-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti Pokiston Mintaqaviy tadqiqotlar instituti bilan hamkorlikda, O'zbekistonning Pokistondagi elchixonasi ko'magida «O'zbekiston – Pokiston: strategik hamkorlik, o'zaro bog'liqlik va o'zgarayotgan dunyoda barqaror rivojlanish» mavzusida ekspertlar onlayn konferensiyasini tashkil etdi.

Anjumanda ma'ruza qilgan Pokistonning Investitsiyalar bo'yicha kengashi sobiq raisi Horun Sharif Janubiy va Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini 15-20 yildan ortiq vaqt davomida kuzatib kelayotganini ta'kidladi. "Men ushbu jarayonlarning rivojlanishini ichkaridan kuzatdim, ilgari Jahon bankining Janubiy va Markaziy Osiyo hamda boshqa mintaqalarda mintaqaviy hamkorlik masalalari bo'yicha mintaqaviy rahbari bo'lib ishlaganman va o'z tajribam bilan o'rtoqlashmoqchiman," - dedi u. Ekspert o'z nutqini uchta asosiy blokka ajratdi: hamkorlik uchun dolzarblik, integratsiya uchun amaliy vositalarning zarurligi va infratuzilmaviy bog'liqlikning ahamiyati.

Horun Sharif hozirgi paytda mintaqaviy hamkorlik uchun qulay vaqt ekanini ta'kidladi. U global bozorlarning mintaqaviy bozorlar tomon siljishi – ya'ni, uning aytishicha, «Globalizatsiya 2.0» hodisasiga e'tibor qaratdi. «COVID-19 dan so'ng transport va sug'urta xarajatlari oshdi, geografik yaqinlik esa raqobatbardoshlikning asosiy omiliga aylandi», – dedi ekspert. Uning so'zlariga ko'ra, O'zbekiston va Pokiston strategik jihatdan yaqinlik ustunligiga ega bo'lib, uni iqtisodiy foydaga aylantirish lozim.

Ekspert integratsiyaning amaliy mexanizmlari zarurligiga e'tibor qaratdi. "Biz faqat integratsiya haqida kutish va gapirish bilan yashashni xohlaymizmi yoki real jarayonlarni ko'rsatadigan aniq vositalarni ishlab chiqamizmi?" - deya savol berdi Horun Sharif. Uning ta'kidlashicha, siyosiy deklaratsiyalar va rejalar bir narsa, transchegaraviy iqtisodiy institutlarni yaratish esa butunlay boshqa narsa. "Bu ikki so'z – "barqaror" va "raqobatbardosh" - juda muhim," – dedi u, shuningdek, barqarorlik va geosiyosiy zarbalardan himoyalaniish uchun mamlakatlar o'rtasidagi savdo o'zaro investitsiyalar bilan to'ldirilishi kerakligini qo'shimcha qildi.

Horun Sharif iqtisodiy tiklanish vositasi sifatida infratuzilmaviy bog'liqlikka alohida e'tibor qaratdi: "Savolni "ikki mamlakatni qanday bog'lash kerak" deb emas, balki "bu bog'liqlik ikkala mamlakat manfaatlari uchun

qanday ishlashi kerak" deb shakllantirish lozim." U amaliy qadamlarni taklif qildi: xususiy sektor uchun bozorga yo'naltirilgan moliya institutini yaratish va iqtisodiyotni geosiyosiy ziddiyatlardan himoya qilish uchun neytral boshqaruvga ega qo'shma quruqlik portlarini yaratish.

Ekspert, shuningdek, uchinchi mamlakatlardan investitsiyalarni jalb qilish uchun biznes amaliyotlari, buxgalteriya standartlari va huquqiy asoslarni uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidladi. "Bog'liqlik xususiy kapitalni jalb qilgandagina ishlaydi. Busiz u "g'isht va beton" va qarz tuzog'iga aylanadi," – dedi Horun Sharif.

Xulosa qilib, u bozorlarga va investorlar uchun signal berishi mumkin bo'lgan kichik, lekin aniq qadamlarni amalga oshirishga chaqirdi: «Hamma narsani pul hal qilmaydi – pulni jalb qila oladigan tuzilmalar hal qiladi», – dedi Horun Sharif, shuningdek, institutsional bazani yaratish va xususiy sektorning ishtirokini barqaror va raqobatbardosh mintaqaviy hamkorlikning kaliti ekanini ta'kidladi.

Konferensiyada O'zbekiston va Pokistonning yetakchi "aql" va ta'lim markazlari rahbarlari va ekspertlari, shuningdek, biznes va diplomatik missiyalar vakillari ishtirok etdi. Tadbir O'zbekiston-Pokiston hamkorligi va mintaqaviy integratsiyani yanada mustahkamlash uchun ekspertlar platformasini shakllantirish yo'lidagi muhim amaliy qadam sifatida qayd etildi.